

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**NURILLAYEVA ZARINA XASANOVNA**

**TOJIK-FORS IZOHLI LUG‘ATLARIDA SO‘ZLARNI IZOHLASHNING  
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (“Burhoni qote” materiallari asosida)**

**10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti (tojik tili va tojik adabiyoti)**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Nurillayeva Zarina Xasanovna**

Tojik-fors izohli lug‘atlarida so‘zlarni izohlashning o‘ziga xos xususiyatlari  
 (“Burhoni qote” materiallari asosida) ..... 3

**Нуриллаева Зарина Хасановна**

Особенности интерпретации значений слов в таджикско-персидских толковых  
словарях (на основе материалов “Бурхони котеъ”) ..... 23

**Nurillayeva Zarina Khasanovna**

Peculiarities of expressing the meanings of words in tajik-persian explanatory  
dictionaries (based on “Burkhoni qote”) ..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 54

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.05.2023. Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**NURILLAYEVA ZARINA XASANOVNA**

**TOJIK-FORS IZOHLI LUG‘ATLARIDA SO‘ZLARNI IZOHLASHNING  
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (“Burhoni qote” materiallari asosida)**

**10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti (tojik tili va tojik adabiyoti)**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.4.PhD/Fil1661 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Shokirov Tug'ral Sirojovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Alimova Xolida Zikrillayevna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Musharrafa Jo'rayeva Rustamovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ da majlislar zalida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail:rector@samdu.uz.

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan) Manzil:140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**M.Q.Muhiddinov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

**D.B.Xursanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**E.R.Musurmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida badiiy matn tilini struktur-semantik hamda statistik, komponent, tipologik, qiyosiy-tarixiy, kognitiv, leksikografik, xronologik uslublaridan foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, milliy tillar tarixi matnlari asosida yaratilgan lugʻatlar, ularning matn kontekstidagi lugʻaviy va mantiqiy mohiyatini belgilash, turli xil istilohlarning semantik va majoziy funksiyasini aniqlash zamonaviy tilshunoslik ilmining asosiy tamoyillaridan biri boʻlib qolmoqda. Shu maʼnoda, lugʻatlar yaratish tarixi va uning asosiy tamoyillarini belgilash, ularda qoʻllanilgan lugʻat moddalarining leksik, etimologik, tarixiy va xronologik maʼnolari, matn tarkibidagi lugʻaviy, semantik birliklar sathini yoritish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunoslik ilmining leksikologiya va leksikografiya sohasi zamirida til tarixini oʻrganish, turli davrlarda yaratilgan lugʻatlarning tuzilishi va ularning tarixiy ahamiyatini aniqlashda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu yoʻnalish ensiklopedik, filologik, tafsiriy va izohli lugʻatlar yaratishning asosiy tamoyillarini belgilash, adabiy matnning lisoniy, majoziy, ramziy, mantiqiy va tarixiy xususiyatlarini sinxron tarzda oʻrganish, yangi tipdagi elektron platformali lugʻatlarni yaratish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Shu bois, lugʻatlardagi anʼanaviy tamoyillar, ularda adabiy til meʼyorlari va mezonlariga rioya etish, soʻz moddalarining tarixiy va ijtimoiy oqimlar hamda hayotiy-real voqeliklariga bogʻliq maʼno belgilari, soʻzlarning etimologiyasi, ularning leksik va semantik asoslari, iqtibosiy va oʻzlashgan soʻz moddalari izohini tizimlashtirish bugungi tilshunoslik sohasidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Mamlakatimizda soʻnggi yillarda ilm-fan taraqqiyotida milliy oʻzlikni anglash, ajdodlar maʼnaviy-madaniy xazinasini tiklash masalalariga eʼtibor qaratilmoqda. “Maʼrifat fidoyilarining qoldirgan oʻlmas merosi bugungi kunda ham maʼnaviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba boʻlib xizmat qiladi.”<sup>1</sup> Natijada leksikografiya har bir xalq tilining lugʻaviy fondi, dunyoqarashi rivojida alohida maqomga egaligi, leksikografik asarlar umumiy til zaxirasini tartibga solishga, alohida leksik turkumlarning adabiy til meʼyorlarini barqarorlashtirishga xizmat qilishi ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida zamonaviy tilshunoslik ilmida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida” Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik lugʻatini oshirish hamda targʻib qilish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar dasturi toʻgʻrisida”, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish,

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. М. Буёк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, НМИУ, 2017. –178 б.

bajarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi” Qarorlari, “Adabiyot va san’at, lug‘atni rivojlantirish–xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori” mavzusidagi ma’ruzasi hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilish darajasi.** Jahon xalqlari leksikografiyasi tarixida “Burhoni qote” lug‘ati borasida Yevropa olimlaridan Jorj Richardson, H.Blochman, S.Zaleman, S.Bayevskiy, L.Shcherba, V.Kapranov, Eron tilshunosligida Aliakbari Dehxudo, Said Nafisiy, Aliasg‘ari Hikmat, Muhammad Muyin, Shahriyoriy Naqaviylar izlanishlar olib borishgan.

Tojik olimlaridan H.Raufov, A.Sanginov, A.Nurov, H.Ahadov, S.Hoshimov, T.Shokirov, S.Nazarzoda, S.Karimov, Mirzo Hasani Sulton, A.Otaxonova, Sh.Rahmatova, S.Voydullozoda va O‘zbekiston leksikograflaridan D.Bahriddin, A.Vohidov, Q.Muhiddinov, N.Husanov<sup>2</sup> kabi bir qator olimlar o‘z qarashlarini

---

<sup>2</sup> Blochman H. Contributions to persian Lexicograph iongrhat ot the Asiatgot Bengal, Calkutta, 1868; Saleman C. Bericht uber die Ausgahle des Miyari Jamoli. Melanges Asiatigues de... 1888. P.417-594; С.В.Баевский. Ранняя персидская лексикография XI-XV вв. – М.:Наука, 1989; Описание персидских и таджикских рукописей института народов Азии, вып. 4. персидские толковые словари (фарханги) – М.: Изд-во восточной лит-ры, 1962; Щерба Л.В. Опыт общей истории лексикографии, избранные работы по языкознанию и фонетике –Т. I, -Л.: Изд-во Ленинградского университета, 1974; Деххудо Алиакбар Луғатнома. - Техрон, 1383. - Ҷ. 11. -765с.; ҷ.12. - 824 с.; Аз ў: Луғатнома ҷ.1-14. -Тегеран, 1993-1994; Саид Нафисӣ «Бурҳони қотеъ» нашри Муҳаммад Муин, ҷ.1, Техрон, 1330 ҳ. ш., Муқаддима. Дастури луғатнависӣ, фарҳанги Амид, чопи дуум, Техрон, 1345 Хуршедӣ; Алӣ Асғари Ҳикмат, Сарзамини Ҳинду Покистон. – Техрон, 1397 ш.; Шаҳриёри Нақавӣ. Фарҳангнависии форсӣ дар Ҳинду Покистон, Техрон, 1341; Капранов В.А.«Луғати фурс» Асади Туси и его место в истории таджикской фарси лексикографии. –Душанбе: Дониш,1969; его же: Таджикско-персидская лексикография в Индии XVI-XIX вв. –Душанбе: Дониш, 1987. Ҳ.Рауфов «Фарҳанги Чаҳонгирӣ» ҳамчун сарчашмаи лексикографияи тоҷику форс. –Душанбе: Дониш, 1973; Сангинов А. Словарь «Баҳори Аҷам» и его лексикографическая характеристика. АКД. –Душанбе,1973; А.Воҳидов «Ғиёс-ул-луғот»-и Муҳаммад Ғиёсиддин ва мавқеи он дар фарҳангнигории тоҷикӣ-форсӣ.- Самарқанд, 2012; Аҳадов Ҳ. «Фарҳанги Рашидӣ» ҳамчун асари лексикографӣ. –Душанбе: Дониш,1981; Ҳошимов С. Луғатнигорӣ. –Душанбе:Маориф ва фарҳанг, 2004; А.Отахонова Масъалаи муайян кардани фонди воҳидҳои луғавии фарҳангҳои пешина. // Маҷ.Забоншиносии тоҷик. –Душанбе: Дониш, 1977; Дарвеш Баҳриддин «Чароғи Ҳидоят»-и Орзу ва забони тоҷикии форсӣ, –Душанбе: Дониш, 1992; Воҳидов А. Структурно-семантическая характеристика лексики в «Ғиёс-ул-луғот», АКД, Душанбе, 1975; Аз ўнӣз: Аз таърихи луғатнависии тоҷику форс. – Самарқанд, 1980; Фарҳангнигории тоҷикӣ-форсӣ дар асрҳои X -XIX. – Самарқанд, 2018; Ҳусанов Н. Лексикографическая характеристика словаря Шейха Сулеймана Бухари «Луғати ҷиғатойи ва Турки усмонӣ» АКД.. –Тошкент, 1982; Аз ў нӣз: Ўзбек антропонимлари тарихи. – Тошкент: Navro‘z, 2014; Содиқов Қ. Тарихий лексикография. – Ташкент: Фан, 2011; Йўлдошев Б. “Санглоҳ” луғатининг моҳир тадқиқотчиси «Ҳикмат ва ибратдан инган маърифат» –Самарқанд, 2002; Алишер Навоӣ асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 4 жилддан иборат, 1983-1985; Проблема толкования слов в филологических словарях, Рига, 1963; Виноградов В.В Лексикология, Лексикография. –М, 1977; Шарафутдинова К.А.Раскрытия значений слов в двуязычном словаре. – Тошкент, 1968; Касарес К. Введение современную лексикографию. – М.: Наука, 1958; Болтубоева И. Робитаи луғавию фразеологии «Мусталаҳоту-ш-шуаро»-и Вораста бо лаҳҷаи Хучанд ва атрофи он.- Худчанд, 2009; Алиева Ф. Арабизированная и фарсизированная лексика в «Гиясуллоғат» Мухаммада Гиясуддина Ромпури:- Автореф. дисс.на соиск канд фил. наук. –Худжанд, 2017; Шокиров Т.С. Таъбирот дар фарҳангҳо. //Забон-рукни

bildirgan bo'lsalar-da, lekin leksikografiya tarixida eng muhim tafsiriy va izohli lug'at kitoblaridan biri bo'lmish "Burhoni qote" asari hanuzgacha alohida tadqiqot doirasida muhokama etilmagan.

Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan "Burhoni qote" bir necha bor qayta-qayta nashr etilishi hamda mazkur lug'at boshqa lug'atnavislar tomonidan asosiy tayanch manba sifatida qo'llanilgan bo'lsa-da, haligacha bu lug'at borasida monografik plandagi alohida tadqiqot yaratilmagan. O'rta asrlar fors-tojik lug'atlariga doir deyarli barcha tadqiqotlarda bu asarning nomi tilga olingan bo'lib, mualliflar lug'atning u yoki bu xususiyati haqida o'zlarining ilmiy qarashlarini umumiy tarzda bildirganlar, xolos. Fors-tojik matnshunosligi va manbashunosligi sohasidagi taniqli leksikograf olim H.Raufov "Rashidiy lug'ati"<sup>3</sup> tafsilotlarini o'rganar ekan, bu asarni krill alifbosiga o'girganligi va uni qayta tahrir etganligini ta'kidlaydi. Taniqli lug'atshunos olim A.Nurov o'zi yaratgan variantning muqaddimasi va lug'atlarni tasniflash jarayonida bu asar borasida ham so'z yuritadi<sup>4</sup>. Sh.Rahmatova mazkur lug'at tarkibidagi frazeologik birikmalar va oykonimlarni<sup>5</sup>, S.Voydullozoda esa lug'atdagi toponimik atamalarning leksik xususiyatlarini o'rgangan<sup>6</sup>. Mazkur tadqiqotlarning barchasida umumiy xarakterdagi qarashlarni uchratamiz. Tadqiqotlarda lug'atning mazmun va mundariyasi, uning ilmiy-nazariy ahamiyati, asarning adabiy-tarixiy manba sifatida ilmiy ahamiyati tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Fors-tojik leksikologiyasi va leksikografiyasi muammolari" mavzusi yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** fors-tojik leksikografiyasi tarixi va uning vujudga kelish tamoyillari, XVIII-XIX asr Hindiston lug'atnavislik maktabi, "Burhoni qote" lug'ati muallifining lug'at moddalari va so'zlarni tasnif qilish usullarini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

tarixiy va qadimiy izohli lug'atlar va "Burhoni qote" yaratilgan davrning tarixiy, ilmiy, nazariy asoslari, shart-sharoitlari, sabab va omillarini ochib berish;

lug'atda so'z moddalarini batafsil, qisqa, sinonim, antonim, ensiklopedik izohlash turlarini dalillash;

o'zlashgan so'zlar va "Burhoni qote" lug'atida suriyoniy, rimiy, zand-pozand iqtibosiy so'zlarning izohlanishini ochib berish;

---

давлат. –Хучанд: Дабир, 2018; Аз ў низ: Киноёти лафзӣ дар "Ғиёс-ул-луғот". // Забон-рукни давлат. – Хучанд: Дабир, 2018; Забони тоҷикӣ дар луғати садзабона. //Забон равшангари дилхост. – Хучанд: Дабир, 2018.

<sup>3</sup> Рауфов Ҳ. "Фарҳанги Чаҳонгирӣ" Ҳамчун сарчашмаи лексикографияи тоҷику форс.. –Душанбе: Дониш, 1973, 191 с.

<sup>4</sup> Муҳаммадхусайни Бурҳон. "Бурҳони қотей" ҷ.І. Пешгуфтор . – Душанбе: Адиб, 1993; ҷ. I, 416 с.

<sup>5</sup> Раҳматова Ш. Р.Фразеологизмҳо дар фарҳанги "Бурҳони қотей"-и Муҳаммадхусайн Бурҳон. // Ахбори ДДХБСТ, 2019, № 4(81). –С.125-135 ; Аз ў низ: Ойконимҳо дар фарҳанги «Бурҳони қотей»-и Муҳаммадхусайни Бурҳон.-// Ахбори ДДХБСТ, 2021, № 3(92)

<sup>6</sup> Вайдуллозода С. Топонимика дар «Бурҳони қотей»-и Муҳаммадхусайни Бурҳон./ С. Вайдуллозода, 2017, № 3. –С. 21-31.

tadqiq etilayotgan lugʻatda soʻz turkumlarining etimologiyasi masalasi boʻyicha lugʻatshunoslar va tadqiqotchilarning ilmiy-tanqidiy fikrlarini dalillash;

Muhammadhusayn Burhonning soʻzliklar va lugʻat moddalarining fonetik, leksik va morfologik xususiyatlarini asoslash.

**Tadqiqotning obyekt sifatida** “Burhoni qote” (A.Nurov tahriri ostidagi 3 jildidan iborat) lugʻati, “Gʻiyos-ul-lugʻot”, “Farhangi zaboni tojik” lugʻatlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** “Burhoni qote” lugʻatidagi leksik birikmalarning izohlanish usullari va tamoyillari, asarning lugʻaviy qatlamlarini aniqlash tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda leksik, statistik, sistem, komponent, qiyosiy-tarixiy, lingvopoetik va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Hindistonda lugʻatlar yaratish maktabining XVIII-XIX asrlarda takomillashuvi, mazkur lugʻatda soʻzlarning fonologik, leksikologik, morfologik xususiyatlari hamda frazeologik birliklarni qiyoslash, sharhlash asosida bo, be, no, dar, fur kabi old qoʻshimchalarning faolligi va -gun, -vash, -oso, -sor singari qoʻshimchalarning nafaolligi aniqlangan;

lugʻatda arab, turk, hind, yunon, rum, avesto va sugʻd, pahlaviy, hind tillariga xos boʻlgan soʻzlarning leksik-semantik, ramziy-majoziy va tarixiy-etimologik hamda kompozitsiyasi, maʼno turlari, juft va takroriyliigi kabi konstruktiv xususiyatlari ochib berilgan;

“Burhoni qote”da “muxaffaf (qisqartma), “muraxxam” (yakunlanmagan), “muarrab” (arablashgan), “tavobeʼ, itbu” (tobe soʻzlar), “murodifot” (bir maʼnoli)”, “azdod” (zid maʼnoli), “noqiz” (nuqsonli, qusurli) kabi istilohlarning lugʻaviy asoslari dalillangan;

soʻz moddalarini sharhlashda havolalar, havolalar ichra havola uslubining imloviy, uslubiy, sintagmatik ahamiyatga egaligi hamda arabcha infinitiv yoki mushtaq (maxsus qolipli) soʻzlarning qoʻshimcha badiiy, publitsistik, jonli soʻzlashuv kabi lingvostilistik usullari mavjudligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Lugʻatda soʻz va istilohlarning leksik, etimologik va majoziy izohlanish tamoyillari, ularni sharhlashda ichki va tashqi havolalar, havolalar ichra havola uslubi misollar orqali ochib berilgan;

qadimgi va oʻrta asrlar fors tili, turk, hind va arab tillariga xos soʻzlar leksik-semantik guruhlariga ajratilgan va misollar bilan dalillangan;

ilmiy-adabiy sohaga doir soʻzlarning affiksatsiya va kompozitsiya usulida hosil boʻlish yoʻllari, ularning etimologik xususiyatlari misollar bilan isbotlangan;

geografik joy nomlari, tarixiy shaxslar, ontologik terminlar, hayvonot va oʻsimlik olamiga xos istilohlarining sinonim, omonim va antonim shaklda qoʻllanishi misollar vositasida yoritilgan;

“Burhoni qote” lugʻatida tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlarini tartibga solish va sharhlash usullari masalalari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiq qilingan materiallar, sharhlangan soʻzlarning fors-tojik tili tabiatidan kelib chiqqan holda izohli lugʻatlar yaratish, tarixiy lugʻatlar borasida xulosalar chiqarishga yordam berganligi, jahon tilshunosligidagi sohaga doir ilmiy terminlardan foydalanilganligi, nazariy fikr hamda xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati lugʻatda izohlangan soʻz moddalarining semantik-struktur prinsiplarini, qadimiy va tarixiy soʻzlarning etimologik xususiyatlarini, tarixiy lugʻatlar borasidagi mavjud ilmiy-nazariy qarashlarni tizimlashtirishga xizmat qilishi, leksikologiya va leksikografiya tarixi sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar uchun nazariy asos boʻlib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ushbu tadqiqot natijalaridan til tarixi, tojik adabiy tili fanlaridan yaratilgan darslik va oʻquv qoʻllanmalarni takomillashtirishda, bakalavriat taʼlim yoʻnalishida amaliy tilshunoslik, magistratura mutaxassisliklari uchun “Leksikologiya va leksikografiya”, “Pragmalingvistika” fanlaridan maʼruza va amaliy mashgʻulotlar oʻtkazishda, tadqiqotdagi ilmiy tavsiyalardan yangi tipdagi lugʻatlar va oʻquv adabiyotlarni yaratish imkonini berishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tojik-fors izohli lugʻatlarida soʻz maʼnolarini ifodalashning oʻziga xos xususiyatlari muammosini tadqiq etishda olingan ilmiy natijalar asosida:

Oʻrta Osiyo va Sharq xalqlari tarixida yaratilgan leksikografiya tarixini davrlashtirish tendensiyalari, Hindistonda lugʻatlar yaratish maktabining takomillashuvi, mazkur lugʻatda soʻzlarning fonologik, leksikologik, morfologik xususiyatlari hamda frazeologik birikmalarni qiyoslash, sharhlash, old va orqa qoʻshimchalarning bo, be, no, dar, fur kabi faol, -gun, -go, -oso, -sor singari nofaolligi borasidagi prinsiplaridan OʻzRFA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-OO5 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan. (OʻzR FA Qoraqalpogʻiston boʻlimining 2022-yil 14-oktabrdagi 17-01/176-son dalolatnomasi) Ilmiy natijalarning qoʻllanishi orqali “Burhoni qote” muallifining xalq ogʻzaki ijod namunalariga xos boʻlgan xalqona til xususiyatlariga daxldor elementlarga munosabati va ularning semantik-struktur hamda real tilshunoslik nuqtayi nazaridan talqin qilish usuli haqidagi qarashlarini oʻrganishga zamin boʻlgan;

Lugʻatda arab, turk, hind, yunon, rum, avesto va sugʻd, pahlaviy, hind tillariga xos boʻlgan soʻzlarning leksik-semantik, ramziy-majoziy va tarixiy-etimologik hamda kompozitsiyasi, maʼno turlari, juft va takroriyliigi kabi konstruktiv xususiyatlariga bagʻishlangan ilmiy-nazariy qarashlardan OʻzRFA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan 2012-2016-yillarda bajarilgan FA-F1-GOO3 raqamli “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional soʻz yasaliishi” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan. (OʻzR FA Qoraqalpogʻiston boʻlimining 2022-yil 19-oktabrdagi 17-01/177-son

dalolatnomasi) Ilmiy natijalarining qo‘llanishi orqali Muhammadhusayn Burhonning til sathining fonetik, leksik va morfologik xususiyatlariga oid qarashlari, lug‘at so‘zlarning semantik va strukturaviy tafsilotlarni tahlil qilish, milliy tilshinoslikda lug‘aviy birikmalarning tarixiy etimologik, qiyosiy-tavsifiy tahlil qilinishi, lug‘atlarda tilga bog‘liq aspektlarni talqin etish prinsiplari, lug‘at manbalarni tavsiflash va ularni tadqiq etish metodlarini tasniflashga asoslangan;

So‘z moddalarini sharhlashda havolalar, havolalar ichra havola uslubining imloviy, uslubiy, sintagmatik ahamiyati hamda arabcha infinitiv yoki mushtaq (maxsus qolipli) so‘zlarning qo‘shimcha badiiy, publisistik, jonli so‘zlashuv kabi lingvostilistik usullariga oid ilmiy-nazariy qarashlardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2016-2018-yillarda amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining erasmus+dasturining 561624-ERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta‘lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasida foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 27-iyundagi 1900/30-son ma‘lumotnomasi) Ilmiy natijalarining qo‘llanishi orqali tojik-fors tilshunosligida “Burhoni qote”-ning lug‘aviy birikmalari tarixiy etimologik, qiyosiy-tavsifiy jihatdan tahlil qilinganligi, muallif tomonidan tilning fonetik, leksik va morfologik xususiyatlariga oid qarashlari, lug‘at so‘zlarning semantik va strukturaviy tafsilotlarni tahlil qilish borasidagi ilmiy va nazariy qarashlarni yoritish prinsiplari aniqlangan.

“Burhoni qote”da “muxaffaf (qisqartma), “muraxxam” (yakunlanmagan), “muarrab” (arablashgan), “tavobe’, itbu” (tobe so‘zlar), “murodifot” (bir ma‘noli)”, “azdod” (zid ma‘noli), “noqiz” (nuqsonli, qusrli) kabi istilohlarning lug‘aviy asoslaridan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining TEMPUS dasturi 2014-2016-yillarga mo‘ljallangan Tempus Project 544161-TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL “Developing the Teaching of european Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes” loyihasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 11-iyuldagi 1985/30-son ma‘lumotnomasi). Jumladan, Muhammadhusayn Burhonning “Burhoni qote” lug‘at asarida hind-Yevropa tillariga xos bo‘lgan so‘zlarning etimologiyasini aniqlash usullari, so‘zlarning tarixiy va genetik strukturasi o‘zida nazariy qarashlar, taqqoslanuvchi tillarning fonetik, leksik va morfologik xususiyatlariga oid ilmiy qarashlar, milliy tilshinoslikda lug‘aviy birikmalarning tarixiy etimologik, lug‘at manbalarni tasniflash va ularni tadqiq etish metodlarini o‘rganish yuzasidan chiqarilgan xulosa va ishlab chiqilgan tavsiyalaridan foydalanildi.

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradiokanali “Bedorlik”, “Ta‘lim va taraqqiyot”, “Ranginkamon” eshittirishlarining ssenariysini tayyorlashda foydalanildi. Jumladan, ushbu eshittirishlar tadqiqotchi Z.Nurillayeva tadqiq etgan Muhammadhusayn ibn Xalafi Tabreziyning “Burhoni qote” asarining Sharq xalqlari tamaddunida tutgan o‘rni uning zamonaviy tilshunoslik va leksikografiya tarixidagi o‘rni, bu lug‘atning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati haqidagi xulosalari va ilmiy natijalaridan ayrim ko‘rsatuvlarning ssenariylarini

tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 13-sentabrdagi 07-37/1499-son ma’lumotnomasi). Radiodasturlarda berilgan ilmiy xulosalar tinglovchilarda milliy qadriyat, milliy boylik, milliy tafakkur tushunchalarini shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega bo‘ldi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjuman va seminarlarda, jumladan, 4 ta xalqaro konferensiyalarda aprobatyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarini e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha ilmiy ishlar chop etilgan. 17 ta ilmiy maqola, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan jurnallarda 6 ta maqola (4 tasi Respublika hamda 2 tasi xorij jurnallarda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Uning umumiy hajmi 176 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, ishning maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Fors-tojik leksikografiyasi evolyutsiyasi va taraqqiyot bosqichlari**” deb nomlanib, uch fasldan iborat. Bobning birinchi fasli “**Fors-tojik leksikografiyasi vujudga kelishining ijtimoiy-tarixiy va ilmiy asoslari**” tadqiqiga bag‘ishlangan.

Mazkur faslda fors-tojik leksikografiyasining tarixiy-nazariy asoslari, uning rivojlanish tendensiyalari, “Burhoni qote” lug‘atining yaratilishigacha bo‘lgan davrlarda tuzilgan izohli va tafsiriy lug‘atlar, “Oyim-evak lug‘ati” avesto va pahlaviy tillariga mansub lug‘at, “Farhangi pahlavik”, Abuhafs So‘g‘diyning “Farhangi Abo‘hafsi Sug‘diy” yo “Risoi Abo‘hafsi Sug‘diy” izohli lug‘ati, Sururiyning “Majma’-ul-furs” yoki “Sururiy lug‘ati”, Qatron lug‘ati, Asadiy To‘siyning “Lug‘ati furs”i, “Farhangi zufongo‘yo va jahonpo‘yo” lug‘atlari qiyosiy tarzda o‘rganilgan.

Ushbu faslda fors-tojik lug‘atnavislik an‘anasi XIV-asrgacha asosan O‘rta Osiyo, Eron va Ozarbayjon (Xuroson)da rivojlanganligi va tarixiy leksikografiyaning nazariy asoslari va lug‘atnavislik tamoyillari belgilab berilgan. Xususan, Asadi Tusiyaning “Furs lug‘ati” (458/1066-bet), Muhammad ibn Hindushoh Naxjuvoniyaning “Sihah-ul-furs”-i (728/1328-bet) “Majmu‘at-ul-furs” (XIV asr) (745/1344) lug‘atlari xususiyatlari yoritilgan. Dissertatsiyada XIII asrdan XIX asrgacha fors-tojik lug‘atnavislik an‘anasi taraqqiyoti markazlaridan biri Hindiston hududi hisoblanishi asosli faktlar yordamida ko‘rsatib berilgan.

O'rta asrlarda fors-tojik tili Hindistonda ham rasmiy adabiy-ma'muriy til hisoblanib, davlat siyosati darajasidagi maqomga ega bo'lgan va mazkur tilning amalda qo'llanilishi bois rasmiy adabiy, ilmiy til sifatida qaralgan. Hindistonda fors-tojik lug'atnavislik tarixi uch asosiy davrga bo'linadi: 1. XIII-XV-asrlar-Hindistonda ilk fors-tojik lug'atlarining vujudga kelishi. 2. XVI-XVII asrlarda-leksikografiyaning rivojlanishi va takomillashuvi davri. 3. XVIII-XIX asrlar-an'anaviy lug'atnavislikning rivojlanishi va takomili<sup>7</sup>.

Lug'atlarda til tarixi va muayyan qolipdagi dastlabgi leksik va grammatik ma'lumotlar Qozixon Badr Muhammad Dehlaviyning (1419) "Adot-ul-fuzalo"sida uchraydi. Ba'zan bunday qisqa ma'lumotlarni Ibrohim Kivom Foruqiyning (1466) "Sharafnomai Ahmadi Munyariy" asarida, Ibn Lodning "Muayid-ul-fuzalo" (1519), Asadululo Sirhindiyning "Mador-ul-afozil", Hofiz Ubahiyning (1530) "Tuhfat-ul-ahbob", Husayn Injuning "Farhangi Jahongiriy" lug'atlarida ko'rishimiz mumkin. XVI-XIX asrlarda tuzilgan lug'atlarni izohli so'zlarning joylashishiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin: 1. Arab alifbosi tartibiga ko'ra tuzilgan lug'atlar (hozirgi zamonaviy lug'atlar kabi): "Burhoni qote", "Bahori Ajam", "Siroj-ul-lug'ot", "Charog'i hidoyat", "Mustalihat-ush-shuaro", "Onandroj lug'ati" kabi asarlar shular jumlasidandir. 2. So'zning birinchi va oxirgi harflari joylashuviga ko'ra yaratilgan lug'atlar: "Mador-ul-afozil", "Kashf-ul-lug'ot", "Muayid-ul-fuzalo", "Durri dori", "Latoif-ul-lug'ot", "Haft qulzum". 3. Izohli so'zlarning oxirgi harfiga ko'ra yaratilgan lug'atlar: "Tuhfat-us-saodat". 4. Birinchi va ikkinchi harflarga ko'ra tuzilgan lug'atlar: "Majma'-ul-furs", "G'iyos-ul-lug'ot", "Rashidiy lug'ati". 5. Izohlanayotgan so'zning ikkinchi harfiga joylashuviga ko'ra tuzilgan lug'atlar: "Farhangi jahongiriy".

Bobning **"Burhoni qote" lug'ati uning tarixiy manbalari va undagi so'z-moddalarining talqini va tavsif usullari** deb nomlanuvchi ikkinchi faslida Xuroson mintaqasi lug'atnavislik tamoyillari va Hindiston mintaqasi lug'atnavislik amaliyoti masalasi tahlil qilingan. Xususan, Xuroson ilmiy-madaniy mintaqasida yaratilgan izohli lug'atlar, jumladan, Asadiy To'siyning "Furs lug'ati", "Sihah-ul-furs", "Me'yori jamoliy", "Majmu'at-ul-furs" va ularning lug'aviy tarkibi, leksikografik asarlarning tuzilishi va manbalarini qamrab olishi jihatidan bir-biridan ma'lum darajada farqlanadi. Fors-tojik leksikografiyasi tarixida eng zalvorli va samarali davrlardan biri sanalmish X-XV asrlarda yaratilgan lug'atlarini tarixiy jihatdan ikki bosqichga bo'lish mumkin: **1. O'rta Osiyo, Eron,**

<sup>7</sup> Капранов В. А., 1986, с. 15; Баҳор, Маликушшуаро Сабкшиносӣ ё таърихи татаввурӣ насри форсӣ./ Маликушшуаро Баҳор. – Душанбе: Сабкшиносӣ, 2012. – 570 с.; Бадр-ад-дин Иброҳим. Фарҳанги Зафангӯя ва джаханпӯя (словарь говорящий и мир изучающий); факсималье рукописи, издание текста, введение, список толкуемых слов, приложения С.И. Баевского, Москва: Вост. литература 1974. – 308 с.; Баевский, С.И. Ранняя персидская лексикография XI-XV в в. / Баевский. - М.: Наука, 1987, 164 с.; Доират-ул маорифи бузурги исломӣ. –Техрон. Ҷ.7.-С.739; ҷ.12.-С. 422; ҷ.13.-С.441-443; Дарвеш Бахриддин «Чароғи Ҳидоят»-и Орзу ва забони тоҷикии форсӣ, –Душанбе: Дониш, 1992.- 168с.; Бадр-ад-дин Иброҳим. Фарҳанги Зафангӯя ва джаханпӯя (словарь говорящий и мир изучающий); факсималье рукописи, издание текста, введение, список толкуемых слов, приложения С.И. Баевского, Москва: Вост. литература 1974. – 308 с.; Баевский, С. И. Ранняя персидская лексикография XI-XV в в. / Баевский. –М.: Наука, 1987, –164 с.; Доират-ул маорифи бузурги исломӣ. –Техрон. Ҷ.7.-С.739; ҷ.12.-С. 422; ҷ.13.-С.441-443; Дарвеш Бахриддин «Чароғи Ҳидоят»-и Орзу ва забони тоҷикии форсӣ, –Душанбе: Дониш, 1992.- 168с.; Каримхӯчаева, Р. Тафсири усулҳои таҳфифи вожаҳо дар фарҳангномаҳои нимаи аввали қарни XIX (дар асоси маводи «Ғиёс-ул-луғот»-и Ромпурӣ): дисс. барои дарёфти дараҷаи илмии номзади илмҳои филологӣ. / Р. Каримхӯчаева –Хучанд, 2006.-150 с.

*Ozarbayjonda lugʻatnavislik anʻanasining paydo boʻlishi va shakllanishi (XI-XIV asrlar). 2.Hindistonda fors-tojik lugʻatlarining rivojlanish bosqichi (XIII-XV asrlar).*

“Burhoni qote” muallifi mazkur lugʻatni yaratishda toʻrtta manbani alohida sanab oʻtadi: “Kamtarin bandalar qatorida men fors, pahlaviy, dariy, yunon, suriy, rumiy, arab tillaridagi lugʻatlar, “Zand va Pozand”, forscha atamalar izohi, arabcha soʻzlar qoʻshilgan gʻariba va mutafarriqa istilohli risolalar, arabcha “istiorot va kinoyot”lar sharhlangan turli xil sohaviy istilohlar tafsiri usullariga bagʻishlangan lugʻatlar toʻplamlari hamda **Sururiyning “Farhangi Jahongiriy”** va **“Majmaʼ-ul-furs”**, **Husayn ul-Ansoriyning “Surmai Sulaymoniy”** va **“Sihoh-ul-adviyya”** nomli mashhur lugʻaviy asarlar majmuasini, har biri muayyan ilmiy-nazariy hamda leksik qimmatlarga ega boʻlgan asarlarni mualliflar ijozatlari bilan qoʻllashni maʼqul koʻrdim...”. Bu lugʻat 29 ta fasl (guftor)dan iborat boʻlib, “guftor” oʻz navbatida “bayon”larga boʻlinadi. “Burhoni qote” kitobining tahajjiy shrift bilan abjadning “bo” harfidagi ikkinchi jumlasini bir ming besh yuz yetmish oltita soʻz va istiora ustida yigirma beshta bayon va kinoyalar mazmuniga asoslanadi. Shuningdek har bir “guftorlar”da 355 ta lugʻat va idiomalar (frazologik iboralar) mavjud. Demak, mazkur lugʻat nafaqat leksikologik, balki lingvistik-grammatik ahamiyatga ham molik.

Birinchi bobning **““Burhoni qote”da leksik-grammatik maʼlumotlarni joylashtirish tendensiyalari”** deb nomlanuvchi uchinchi faslida qadimgi lugʻat mualliflari nafaqat soʻz va iboralarni sharhlash bilan, balki grammatik masalalar va muammolarni yechish bilan ham shugʻullanganligini hamda oʻz davrining taniqli tilshunoslari qatorida tilga olinganligi masalasi oʻrganilgan. Bu borada fors-tojik lugʻati tarixida “Burhoni qote” muallifi yagona shaxs emas. Undan oldin “Muayid-ul-fuzalo” muallifi oʻz kitobining har bir bobini boshida harflarning xususiyatlarini tadrijiy ravishda sharhlashga kirishgan. Leksik-grammatik masalalar “Mador-ul-afozil”ning mulhaqotida, xususan, “ayrim javoblar bayoni” faslida ham keltirilgan. Bu narsa kitobning “Zobita” boʻlimida har bir harfning xarakteriga mos ravishda soʻz yasaliishi va ayrim grammatik elementlarning shakl oʻzgarishi, koʻplik turkumlari, ovoz oʻzgarishi (assimilyasiya va dissimilyasiya) hodisasi, ayrim feʼllarning koʻchirilishi va hokazolar haqida soʻz boradi.

Hafiz Raufov “Farhangi jahongiriy” tadqiqi jarayonida bu lugʻatning muqaddimasidagi leksik-grammatik maʼlumotlardan keyingi lugʻatnavislar, jumladan, “Burhoni qote” muallifi ham foydalanganligini taʼkidlab oʻtadi. Lugʻatdagi **birinchi “foйда”**, dastlabgi bob boʻlgani uchun mazkur lugʻat uchun oʻziga xos kirish qismi vazifasini oʻtagan. **Ikkinchi foyda** fors tilini tavsiflashda keltirilgan boʻlib, unda barcha forscha soʻzlarning oxirlari harakatsiz va turgʻun, yaʼni oʻzgarmas; **dil, sar, po** kabilar ekanligi qayd etilgan. **Uchinchi foyda** har bir bobning sarlavhasi juda aniq va tiniq berilishi, ilmiy mulohaza yurita olish doirasini, ilmiy-nazariy tafakkur kengligini belgilashga bagʻishlangan. **Toʻrtinchi foyda** “Forscha yigirma toʻrtta harfning har biri boshqa harfga aylanishini tushuntirish bobida” deb nomlanib, harflarning boshqa harfga aylanishi, mubaddal boʻlish hodisasi keltiriladi: **Zamoyirdagi beshinchi foyda**. Taʼkidlanadikim, **“zamoir”**ning oltita harfi va unga taalluqli maxsus soʻzlari bor, ulardan uchtasi

birlik - **mufradi sokin, shin, toi qarashat, mim**; qolgan uchasi murakkab bo‘lib, bular **nun, doli abjad, yo-i hutti va dol, mim,-nad, -yad** va **-yash** bilan birga kelishi mumkin. **Oltinchi foyda** so‘z boshida, o‘rtasida va oxirida nazarda tutilgan ma‘noni topish uchun ishlatiladigan mushtarak harflarni tavsiflashdir. Bu bobda, asosan, so‘z yasaliş elementlari va kombinatsiyalari ko‘rib chiqiladi. **Yettinchi foyda**. Bu bobning afzalligi shundaki so‘zlarga go‘zallik va ziynat berguvchi unsurlar tafsiriga bag‘ishlangan, ularning ma‘nosiga aloqasi yo‘q. **Sakkizinchi foyda** so‘z yaratish elementlariga bag‘ishlangan bo‘lib, ular quyidagicha: So‘zga egalik, ko‘plik, o‘xshashlik, faoliyat, o‘zgarish, nisbiy, qobiliyat, o‘xshatish, tashbihlash, himoya, egalik, tasvirlash, rang va tus, masdar, infinitiv yondashuv hamda imkoniyat ma‘nolarini bildiruvchi elementlar ko‘rsatilgan. **To‘qqizinchi foyda** “Imlo mutaxassislari va bu sohada ishlaydigan shaxslar bilishi shart bo‘lgan juzlarni tavsiflash” deb nomlanadi va gap asosan fors-tojik tili va arab alifbosiga xos bo‘lgan mushtarak va har ikki tilga taalluqli imlo xususiyatlari haqida boradi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “**“Burhoni qote”**da so‘zlar izohi va sharhlash usullari” deb nomlangan. Uning birinchi fasli “**“Burhoni qote”**ga kiritilgan leksik birlik va ekvivalentlarning ilmiy tavsifi” deb nomlanib, unda so‘zlarning ma‘no chegaralarini va ularning leksik qatlamlarini aniqlash, yasama va murakkab so‘zlarning asliy, semantik va majoziy ma‘nolarini talqin qilish, erkin va frazeologik iboralarni izohlash, uning eng oddiy lug‘aviy ma‘nosini izohlashning turli usullarini aniqlash masalasi yoritilgan.

“Burhoni qote” va “G‘iyos-ul-lug‘ot”da ba‘zan so‘zlarning umumiy ma‘nosi berilmaydi, faqat “ma‘lum” va “mashhur” so‘zlarning sharhlanishi, nodir shakllari talqini qanoatlantiradi. Bu lug‘atlarda so‘zlarning metaforik va omonimik shakllari va ularning ma‘nolari ko‘proq qayd etilgan. Leksikografiyaning vazifasi muayyan tilning leksik qatlamlari tarkibini aks ettirishdan iborat bo‘lib, u barcha so‘zlarni va kompozitsion qurilmalarini ham o‘z ichiga olishi lozim. Lug‘atlarda, eng avvalo, so‘zning ma‘nosiga va undan so‘ng so‘zning tuzilishi (oddiy, yasama, murakkab, qo‘shma shakllari)ga ahamiyat beriladi. “Burhoni qote” lug‘atida muallifning ijodiy tamoyilidan kelib chiqqan holda **mufassal** va **ixcham (qisqa)** bayon talqini usulini ajratib oldik. Bundan tashqari, ensiklopedik lug‘atlarning xususiyatlari mujassam etilgan va shu tamoyilga amal qilingan lug‘at maqolalari va moddalari ham mavjud.

“Burhoni qote”da lug‘at maqolalarining aksariyati frazeologik va lingvistik-leksik izohlash xususiyatiga ega bo‘lib, ularda so‘z va iboralar ma‘nosining asosiy va muhim tomonlari ochib berilgan. Muallif so‘zlarning ma‘nosi va had-hududini belgilamaydi, faqat lug‘aviy ma‘nolarini tilga oladi, xolos. Mazkur lug‘atda ma‘nolari raqamlashtirilgan bir nechta lug‘at maqolalari mavjud.

Bu tafsirlardan Muhammad Husayn Burhon so‘zlarning leksik ma‘nosini keltirishda qisqa, ixcham va kichik hajmdagi ma‘lumotlarni keltiradi, bu ma‘lumotlar dalillarsiz, ammo ularda avvalgi mualliflardan ko‘proq ma‘no qamrab olgan. “Chol” so‘zining ma‘nosini lug‘atlarda keltirilgan ma‘lumotlar nuqtayi nazaridan solishtirmoqchi bo‘lsak, quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: “Burhoni qote”da bu so‘zning 9 ta ma‘nosi, “Farhangi Jahangiriy”da 6 ta ma‘nosi, FZTda 4ta ma‘nosi va FTZTda 5 ta omonimik ma‘nolari mavjud. “Burhoni

qote”da FTZTda berilgan chol I.(turkcha) va chol II ma’nosi avvalgi lug‘atlarda qayd etilmagan.

Ikkinchi bobning “**Burhoni qote**”da so‘zlarning semasiologik talqini va havola usulidan foydalanish” deb nomlangan ikkinchi faslida ana’anaviy tarzda lug‘atlarda qo‘llaniladigan mufassal va muxtasar talqin usullari va ular o‘rtasidagi farqiyatlar tadqiq etilgan. Dissertatsiyada bu usullarni shartli ravishda ikki guruhga ajratdik. Muxtasar talqin so‘zning umumiste’moliy va qo‘llanilish tabiati xususiyatiga hamda ba’zan esa uning tor doiradagi ma’nosiga bog‘liq. “Burhoni qote”ning o‘ziga xos jihati shundaki, unda ko‘proq “Zandu Pozand”, rumiy va suriyoniy tillariga mansub so‘zlar talqiniga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Bu so‘zlarning ko‘pchiligi qisqacha va muxtasar izohlash orqali berilgan. “Burhoni qote” muallifi bunday hollarda ko‘pincha so‘zlarning konkret ma’nosini bergan, buni quyidagi misollardan anglash mumkin: **Olunj** النج, ma’lum va mashhur meva turidir; **Afsona** افسانه mastona vaznida; o‘tmishdagi hikoyalar va qissalar...; **Ag** آگ “Zandu Pozand” lug‘atida bug‘doy, arab tilida hinta; **Akbiyo** اكبيا ag‘niyo vaznida; “Zandu Pozand” lug‘atida **pay** va arabchada **asab** ma’nosida. Muhammad Husayn Burhon tomonidan asosiy va tayanch so‘zlarni izohlash jarayonida **sinonimlardan** keng foydalangan. Muallif lug‘atda so‘zlarning ma’nosini izohlashda sinonimlarni tanlash juda nozik masala ekanligini teran anglagan. Agar sinonimlar o‘rtasida ma’no jihatidan biroz farq bo‘lsa, u holda leksikografik belgilar (vergul, nuqtali vergul, maxsus sonlar) qo‘llanilgan. Lug‘at yozish an’analariga ko‘ra, sinonimlar orqali so‘z ma’nosini ochish, asosan, ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi: a) izoh beriladigan so‘zlarda sinonim bo‘lsa, uning ma’lum va mashhur lug‘at birligi tushuntirilib, uning noma’lum bo‘lgan lug‘at birligiga havola qilinadi; b) sinonimlar qo‘llanilishi doirasi bir xil bo‘lsa, birinchi alifbo tartibiga qarab izohlanadi va undan so‘ng uning ikkinchisiga murojaat qilinadi. “Burhoni qote”da ko‘pincha sinonimlar berilishi bilan birga ularning o‘zi ham izohlanadi, buni aralash talqin ham deyish mumkin. Boshqa o‘rinlarda, faqat sinonimlar tilga olinadi, xolos. Leksik birliklarni sinonimlar bilan tafsirlash usulini ikki guruhga bo‘lish maqsadga muvofiq: 1. Izohlanayotgan so‘zning faqat sinonimlari beriladi: **Ozarkesh** آذرکیش otashparastlarga nisbatan qo‘llaniladi; 2. Sinonimlarni sharhlashdan so‘ng, so‘zlarning muxtasar yoki batafsil izohlari va ularning semantik ma’nolari beriladi: **Afroz** افراز parvoz vaznida: balandlik, yuqori ma’nosida; buyruq ma’nosida ko‘tarmoq, balandga ko‘tarish; va bu so‘z xatiblarining minbarlarini ham ifodalaydi...;

Tadqiq qilinaotgan lug‘atda ikki turdagi havolalar ishlatilgan, ular ichki va tashqi havolalar hamda qo‘shimcha ravishdagi havolalar ichra havola uslubidir. Ichki havola asosan so‘z bilan shu so‘zlarning boshqa turdosh variantlarini izohlashda, so‘zning turi yoki mutlaqo boshqa turlarini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi. Masalan, **tavora** طواره sharora vaznida. Bish ma’nosida, ildizga nisbatan aytarlar, ya’ni **mohparvin**. Aytishlaricha, u **mohparvin bilan birga** o‘sadi, ammo sommi qotil.

Shu tariqa, “Burhoni qote”dagi havola berish usuli o‘rta asrlarning eng muhim leksikografik vazifalaridan biri-so‘zning mantiqiy ma’nolar silsilasi va semantik xususiyatlarini aniqlash uchun xizmat qilib, lug‘at moddalarining

variativlik va turli usullarda ma'no belgilarini aniqlash, so'zlarning ma'no belgilariga tushunchalar asosida mukammal berish borasida muhim ahamiyatga egadir.

“**Burhoni qote**”da qomusiy talqin usuli masalasi” deya nom olgan mazkur bobning uchinchi faslida lug‘at muallifining o‘z asarida qomusiy tamoyillarga rioya etishi va mazkur uslubdan foydalanishi o‘rganib chiqilgan. “Burhoni qote”da ham “G‘iyos-ul-lug‘ot” darajasida bo‘lmasa-da, uning ayrim maqolalarida qomusiy mulohazalar, ensiklopedik tafsir usullari va talqinlar o‘rin olgan. Asardagi 20211 leksik birlik moddalaridan 7000ga yaqin lug‘aviy birlik qomusiy talqin qilish xususiyatiga ega bo‘lib, bu talqinlarni o‘z navbatida ikkiga bo‘lish mumkin: a) batafsil yoki to‘liq ensiklopedik talqin; b) qisqacha ensiklopedik talqin

Shu o‘rinda “Mo‘miyoiy va mo‘miyo” lug‘at maqola moddasida batafsil ensiklopedik talqinning muayyan elementlari mavjudligini anglash mumkin. Masalan: “Mo‘miyoiy //mumiyoiy” مومىيوىيى vaznida; Bu qatron va qora ko‘mirga o‘xshash jism va moddaning yunoncha nomi; ba‘zilar esa uning kelib chiqishini Oyin mumi (mim harfining kasrasi) deyishadi, Oyin esa mo‘miya ishlab chiqariladigan g‘or yaqinidagi qishloqning nomi; ba‘zilari esa uning qo‘shma ma‘nosi mumoyin (mim sukuni), ya‘ni mumravish va mumtarz, ya‘ni mum kabi; ba‘zilar esa ikki ma‘noda o‘xshash (birinchi “yo” o‘rniga “bo” abjad yo‘latgan holda) tushinishadi...;

Filologik va qomusiy lug‘atlarda so‘z ma‘nosini izohlash usuli ma‘lum lingvistik va grammatik vazifalarga ega bo‘lib, ulardan biri asosan umumiy qo‘llanilgan ma‘no va iboralar bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchisi so‘zlarning o‘zi va ularning terminologik xususiyatlari bilan bog‘liq. Tojik lug‘atshunosligi tarixida “Burhoni qote” ham qomusiy lug‘atlarning ayrim jihatlarini o‘zida mujassam etgan lug‘atlardan biri hisoblanadi: Zero unda: 1. Barcha ensiklopediyalarda e‘tiborga olinmagan talqin moddasining ekvivalenti; 2. Ikkilik substansiyaning ta‘rifi; 3. So‘zning leksik izohi va ma‘nosi; 4. Sharhlashda so‘zlarning sinonimik, antonimik, ko‘p ma‘noli va omonimiyasidan foydalanish usuli; 5. So‘z va lug‘at birliklarining turli belgilarining tarixiy va ilmiy izohini batafsil talqin qilish; 6. Tarjima jarayonida havolalardan foydalanish usullarini uchratishimiz mumkin.

Ikkinchi bobning to‘rtinchi fasli **“So‘zlarning ma‘no tovlanishi, ularning leksik ma‘nosini talqin etishda ibora va gaplardan foydalanish usullari”** deb nomlangan. Mazkur faslda “Burhoni qote”da so‘z ma‘nosi va uning leksik xususiyatlari masalasi, so‘zning tub mohiyatini va uning asl birlamchi lug‘aviy ma‘nosini qaysidir jihatdan mustahkamlash masalasi tadqiq etilgan. Aslida ikki yoki undan ortiq so‘z aynan bir narsa yoki tushunchani ifodalasa ham, ulardan biri talqin qilinayotgan so‘zning leksik va asliy ma‘nosiga yaqinroq bo‘ladi. Lug‘atda so‘zlarning ma‘nosini aniqlash va izohlash jarayonida so‘zlarning ushbu qo‘shimcha ma‘nosiga ham maxsus ahamiyat beriladi.

So‘z ma‘nosini ko‘rsatish va uning boshqa qo‘shimcha ma‘nolariga ishora va havolalar berish lug‘at muallifi ishining alohida bir jihati bo‘lib, u so‘z ma‘nosini ochish va aniqlashda maxsus namoyon bo‘ladi, chunki ko‘p hollarda so‘z asl ma‘nosidan tashqari o‘zga ma‘nolarda ham qo‘llanadi. Masala, **Lola** لاله **xola**

**vaznida**; umuman yovvoyi hisoblangan har qanday gulga nisbatan ishlatiladi; ayniqsa No‘‘mon lolasi deb ataladigan dog‘li lola turidir. Lug‘atda muallif so‘zning asl ma‘nosini ‘‘ham’’ va ‘‘ayniqsa’’ so‘zlari bilan maxsus tarzda, biroq ularning qo‘shma ma‘nosini esa ‘‘umumiy’’ so‘zi orqali ifodalaganligini kuzatish mumkin. ‘‘Burhoni qote’’da ba‘zan mushataq ma‘nolarini belgilashning alohida usuli ham uchraydi. Boshqa so‘zdan yasalgan bunday so‘zlar, ayniqsa, arabcha infinitivning bir o‘zagidan tuzilgan so‘zlarga nisbatan mushtaq so‘zlar deyiladi va mazkur lug‘at muallifi ham bunday so‘zlarni ko‘p ishlatgan.

Lug‘at muallifi dastlab so‘zning lug‘aviy-leksik ma‘nosini so‘ng asosiy yoki asl ma‘nolari bilan birga ularning majoziy ma‘nolarini aniqlagan va bunday so‘zlarning majoziy yoki kinoyaviy ma‘nolarda qo‘llanilishini belgilab bergan. Shu tariqa lug‘aviy birliklarning ma‘nolarini tasniflash bilan shug‘ullanuvchi lug‘at mualliflari yaxlit ma‘noga ega bo‘lgan so‘z va iboralarning ma‘nosini aniqlash hamda belgilashda ularning qo‘shimcha stilistik vazifalariga beixtiyor duch keladi. Lug‘atlardagi leksik birliklarning majoziy-ramziy, badiiy hamda mantiqiy ma‘nolarining kelib chiqishi, namoyon bo‘lishi va ularning bu xususiyatlarini belgilash lug‘at muallifining dunyoqarashi, lug‘at turi, uning qaysi tamoyilga rioya etishi, tilshunoslik ilmidagi maqomi, lug‘atnavis dunyoqarashi va mahoratiga bog‘liq.

‘‘Burhoni qote’’da aksariyat hollarda bir lug‘at maqolasi uch-to‘rt izohli so‘zdan iborat bo‘lib, masalaning shu tomonini hisobga oladigan bo‘lsak, lug‘atdagi izohli so‘zlar soni 20000 (yigirma ming) lug‘aviy birlikdan ko‘proq, ya‘ni 30 000 (o‘ttiz ming)dan ortiq lug‘at maqolalarini tashkil qiladi.

Uchinchi bob **‘‘Burhoni qote’’da so‘zlarning tuzilishi va lingvistik munosabatlar muammosi**’’ va uning birinchi fasli **‘‘Lug‘atda yasama va murakkab so‘zlar tuzilishi hamda fors-tojikcha so‘z turlari’’** deb nomlangan. Mazkur faslda eng avvalo, ‘‘Burhoni qote’’ning o‘z davrida ham izohlanishi lozim bo‘lgan so‘z va tarkiblar soni jihatidan muayyan va ma‘lum bir imtiyozlarga ega ekanligi, ikkinchidan, o‘zga tillarga xos bo‘lgan so‘zlarning miqdori boshqa lug‘atlarga nisbatan ko‘proq va mukammalroq ekanligi, uchinchidan, lug‘atshunoslikning asosiy prinsiplariga oldingi lug‘atlarga nisbatan alohida e‘tibor berganligi, muallifning o‘z davrida lug‘atshunoslikka oid maxsus laboratoriya yaratishga moyassar bo‘lganligi va bu tamoyil undan keyingi davrlarda boshqa lug‘atshunoslar tomonidan yanada rivojlantirilganligi yoritilgan.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli **‘‘‘Burhoni qote’’da iqtibosiy so‘zlar va ‘‘Zandu Pozand’’ lug‘ati’’** deb nomlangan. Mazkur faslda iqtibosiy so‘zlarning umumiy lug‘atdagi ulushi va ularning semantik va leksikografik xususiyatlari, iqtibosiy so‘zlar va birliklarning o‘ziga xos mezonlarga ega bo‘lishi, ularning boshqa tillarda tasodifiy unsurlar sifatida muayyan ilmiy ahamiyatga molikligi tadqiq etilgan. Tilshunoslar bu borada quyidagi ikkita mezoniga asosiy va muhim omil sifatida qaraydilar: ko‘chirilgan so‘z (yoki ibora) iqtiboslanadigan tilning fonetik-savtiy xususiyatlariga, til motiviga va so‘zlarning talaffuziga mos kelishi va bu tilning semantik va grammatik xususiyatlariga mutanosib bo‘lishi; ko‘chirilgan so‘z (yoki ibora) asosida boshqa hodisalarni ifodalovchi yangi so‘zlar

yaratilishi va bu hodisaning til lugʻaviy fondini boyitishga olib kelishi. “Burhoni qote” lugʻatida quyidagi lugʻaviy koʻchirma birliklar keltirilgan: arabcha soʻzlar, turkcha-oʻzbekcha soʻzlar, hindcha soʻzlar, yunoncha soʻzlar, rumiy soʻzlar, “Zand”, yaʼni oʻrta fors (pahlaviy) tili, “Avesto” tili, “Pozand” - avesto yozuvidagi pahlaviy matnlarning turlicha talqini qolipidagi soʻzlar izohi.

Shuning uchun ham “Burhoni qote” fors-tojik tilining eng mashhur va muhim talqin lugʻatlaridan biri boʻlib, muallif nafaqat adabiy soʻzlar, balki juda koʻp atama, istilohlar va maxsus tushunchalarni: oʻsimliklar va hayvonlarning nomlari, dori-darmonlar, toponimik istilohlar, geografik atamalar, ashyolar va duradgorlik asbob uskunalar hamda ularga xos boʻlgan mayda narsalarning ham lugʻaviy maʼnolarini izohlashga intiladi<sup>8</sup>...

Uchinchi bobning “**“Burhoni qote”da leksikografik qaydlar va izohlar**” deb atalgan uchinchi faslida lugʻaviy birliklar va soʻz moddalarning leksik maʼno tarkibidagi alohida soʻzlarni qoʻllanish barqarorligi, ularning muayyan tizimdagi soʻzlar transformatsiyasi, ayrim soʻzlarning turlicha shakllarga ega boʻlsa-da, boshqa bir guruhi matndagi tarixiy shakllarini uslub ehtiyoji va talablariga koʻra oʻzgartirishi, uchinchi guruhga mansub soʻzlarning tarixiy tipda turgʻun qolipda qolishi yoki etimologik nuqtayi nazaridan muomaladan chiqishi oʻrganilgan. Lugʻatlarda leksik birliklarning oʻziga xos xususiyatlari nutqning murakkab tizimida namoyon boʻlishi va lugʻatlarni tuzishda soʻzlarni tasniflash xususiyatiga eʼtibor qaratish, qaydlar va soʻzlarning maʼnolar olamidagi koʻlamini izohlashdan tashqari, uning talaffuziga taʼsir qilishi va maxsus leksikografik belgilardan foydalanishni taqozo etadi.

Dissertatsiyada shakl jihatdan qisqartirilgan soʻzlarni belgilash uchun **muxaffaf, muraxxam, muarrab, tavobeʼ-itoʻ va antonimik (azdod)** zidmaʼnoli, **noqiz** hamda nuqsonli (qusrli) kabi atamalar, qaydlar, ishoralar hamda istilohlar qoʻllanilgan. Dissertatsiyada mazkur lugʻat misolida 240 dan ortiq lugʻat-soʻz va 1560 dan ortiq izohli soʻzlar qisqartirilgan-muxaffaf soʻzlar sifatida koʻrsatilganligi, **muraxxam** (مرّخم) soʻzning morfema yoki uning oxirgi qismi tushib qolgan taqdirda ham, soʻzning qolgan qismi uning toʻliq shakl maʼnosini bera oladigan soʻzlarning bir qanchasi va ularning arabcha soʻzlar bilan yonmayon qoʻllanilishi, 150 dan ortiq muarrab معرب ajamiy tillardan arab tiliga oʻtgan soʻzlar hamda arabchalashtirilgan soʻz shakllari tilga olinganligi va ularga maxsus tamoyillar negizida izoh berilganligi, 180 dan ortiq tavobeʼ-itoʻ soʻzlar va tarkiblar (orid-birid آرید برید, daqu laq, tunduXund تندوخند) tipidagi soʻzlarning izohlanish usuli, “muqobil” va yo “azdod” turkumidagi soʻzlardan 243 lugʻat moddasida foydalanilganligi koʻrsatib oʻtilgan.

Mazkur bobning toʻrtinchi fasli “**“Burhoni qote”da iboralar va ularni talqin qilish muammolari**” deb nomlangan va bu faslda ushbu lugʻatda tojik tilining erkin (sintaktik) va turgʻun-ustuvor (frazologik) birikmalar turi va ular orqali soʻzlarning izohlanish, fors-tojik leksikografiyasi tarixida frazeologik birliklarning lugʻatlarda qoʻllanilishi masalasi tahlil qilingan.

---

<sup>8</sup> Шокиров Т.С. Таъбирот дар фарҳангҳо. // Забон- рукни давлат. –Хучанд: Дабир, 2018. –С.63.

“Burhoni qote”da fors-tojik tillarida mavjud har ikki xil iboralar: erkin-sintaktik iboralar va usutvor-turg‘un (frazeologik) iboralar izohi berilgan. Mazkur lug‘atda iboralarning izohlanishi muayyan g‘oyaviy maqsadlarga bog‘liq bo‘lib, ulardagi ma‘no va tarixiylik mazmun-mohiyatni yanada teranroq anglash hamda ushbu iboralarni izohlashga ma‘naviy ehtiyoj borligi uchun ham foydalanilgan. Masalan; **ganji gov** گنج گاو - Jamshid xazinalaridan birining nomi bo‘lib, u Bahromi Go‘r davrida paydo bo‘lgan. Bu har bir frazeologik birlikning vujudga kelishi tarixiy rivoyat mazmuniga bog‘liq. **Durji tang** درج تنگ - ma‘shuq labi va yo og‘zidan kinoya; **durji dehqon** درج دهقان - tarix kitobidan kinoya; **harfi pahludor** استوار حجت - kimgadir til uchida takalluflar qilish; **hujjati ustuvor** چادر لاجورد - osmondan, samoviy kitob, Qur‘oni karimdan kinoya, **chodiri lojuvard** چادر لاجورد - yam-yashil dala va o‘tloqdan kinoya, **xasmi yakchashm** چشم یک چشم -shaytondan kinoya, **punba dar go‘sh nihodan** پنجه در گوش نهادن - beparvolik, quloq solmaslikdan kinoya; **jom bar sang zadan** جام بر سنگ زدن - tavbadan kinoya...; **dandon safed kardan** -qo‘rquv va kamtarlik ma‘nosida, **ob otash shudan** آب آتش شدن, ya‘ni g‘alayon-qo‘zg‘olondan kinoya.

Shu tariqa, “Burhon”ning ko‘p sonli leksik ma‘noga ega birliklari turli frazeologik iboralar yordamida hosil bo‘lib, qomusiy xarakterga ega va ilmiy nuqtayi nazardan yuksak lug‘atnavislik mahorati bilan talqin qilingan. “Burhoni qote” asaridagi iboralar soni 3680 dan ortiq bo‘lib, shundan 662 tasi birinchi jildda, 1117 tasi ikkinchi jildda, 1901 tasi uchinchi jildda keltirilgan. Shundan 1230 ta frazeologik iboralar faqat mulhaqotda izohlangan va sharhlangan bo‘lib, muallif masalaning bu jihatiga ko‘proq e‘tibor bergan va shu yo‘l orqali qisqacha alohida frazeologik lug‘at yaratgan degan to‘xtamga kelish mumkin.

## XULOSA

Tadqiqotda mavzu bo‘yicha mushohadalar, sharhlar va ilmiy kuzatishlarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Fors-tojik lug‘atshunoslik va leksikografiyasi taraqqiyotining manbasi va shakllanish omillari Sharq, xususan mumtoz fors-tojik adabiyotiga bog‘liqdir. Sharqiy Xuroson mintaqasida shoir va yozuvchilar tomonidan badiiy asarlarda qo‘llanilgan so‘z va iboralar barcha eronliklar uchun ham tushunarli bo‘lmagan va shu nuqtayi nazardan izohlarga va sharhlarga ehtiyoj bor edi. Bu kabi ma‘naviy ehtiyojlar maxsus filologik va izohli lug‘atlarning yaratilishini taqozo etardi. XIII asrdan, ayniqsa, temuriylar davrida leksikografik muhit va markazlari Hindiston havzasiga ko‘chib o‘tdi va shu davrdan boshlab turli xil hajmdagi bir qancha lug‘atlar yaratilib, fors-tojik tilshunosligi rivojiga hissa qo‘shdi va ulardan eng mashhuri Muhammad Husayn Burhon qalamiga mansub “Burhoni qote” asari hisoblanadi.

2. “Burhoni qote” lug‘ati fors-tojik tili leksikasi va leksikografiyasi, lug‘atlarning mukammal tuzilishi, leksikografik manbalarning qamrab olinishi, tojik tilshunosligi tarixida so‘z shakllarini aniqlash, tasnif etish va izohlash usullari jihatidan bugungi kunda ham muhim tarixiy manba va ilmiy asar hamda

dasturulamal sifatida qo'llanilmoqda. Lug'at musannifining leksik-grammatik fikr-mulohazalari ularda bayon etilgan ilmiy-nazariy va falsafiy 9 ta foyda (qoida)dan tarkib topib, ularda fors-tojik tiliga mansub so'zlarning izohlanish usullari, eng muhim yo'l-yo'riqlari faktik misollar orqali ko'rsatib berilgan. Bu ko'rsatmalarning aksariyatiga bugungi kunda ham amal qilinib, ulardan til tarixi va hozirgi tojik tili grammatikasini mukammal tarzda tayyorlash va qayta ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

3. Muhammad Husayn Burhon lug'atshunoslik manbalarini chuqur o'rgangan, ulardan ijodiy foydalangan, fors-tojik tilining tarixi va undagi nodir sharhlash uslublarini, bu tildagi dialektlarga xos bo'lgan tarixiy so'zlarni o'zining betakror lug'atida yuksak darajada aks ettirgan. "Burhoni qote"da talqinni talqin etish nazariyasi, nazariy tatbiq etish, izohlash, havola berish usuli qo'llanilgan va amalda joriy qilingan va bu usul keyingi lug'atshunoslar tomonidan keng miqyosda foydalanilgan. Ko'p hollarda lug'at maqolasini tafsirlash va izohlash maqsadida tayanch so'zning uch yoki to'rtta ekvivalentidan foydalaniladi. Bu usul asarda 20 000 emas, balki 30 000 dan ortiqroq leksik birliklarning leksik va semantik ma'nolarini topish va sharhlash imkonini bergan.

4. Lug'aviy birliklarni yasash va tayanch so'zni izohlashda arab, yunon, hind, turk tillarga xos bo'lgan sinonimlarni kuzatamiz, ular bosh lug'aviy moddadagi so'zning asl ma'nosini ochishga va uning leksik va semantik mazmunini to'liq ko'rsatishga yordam beradi. Muallif leksik ma'lumotlarni izohlashda antonim, sinonim va omonimlarning o'ziga xos leksik va sintaktik xususiyatlaridan maqsadli va katta mahorat bilan foydalangan, lug'at boyligi va ish hajmini tejash orqali leksik birliklarning aniq talqinini ta'minlagan.

5. Muhammad Husayn Burhon mazkur lug'atning leksik va semantik talqinida ilmiy, diniy, tarixiy va etnografik tamoyillarga ham amal qilgan holda zamonaviy tilshunoslik ilmi yutuqlardan foydalangan va asarining ilmiy-nazariy qimmatini oshirgan va izohlarning originalligini ta'minlagan. Deyarli barcha leksik birliklarni izohlashda ularning amaliy ahamiyatini va hayotiy afzallik tomonlari bayon etilgan. "Burhoni qote"da mufassal, ixcham va qomusiy talqin usublari tatbiq qilingan. Lug'atda foydalangan ensiklopedik talqinning bu turi XVII-XIX asrlar milliy-madaniy dunyoqarashida ushbu lug'at ta'sirida keyinchalik keng miqyosda an'anaga kirgan.

6. Muallif o'z asarining lug'aviy qatlami va uning leksik tarkibiga alohida e'tibor berib, fors-tojik tillaridagi erkin va turg'un so'z hamda iboralar bilan bir qatorda, lug'atdagi boshqa tillarga xos bo'lgan so'zlarni ham izohlagan. "Burhoni qote"da, avvalo, matruk (o'lik) eroniy tillar guruhiga mansub forscha, tojikcha va dariy tiliga xos so'zlar ma'lum tartibda yorqin tarzda izohlanadi. Xususan, asarda eroniy tillarning turli lahjalariga xos bo'lgan etnografik so'z va iboralar son va miqdor jihatidan ko'p bo'lib, ular tuzuvchi tomonidan maxsus, aniq misollar va hayotiy voqelik tamoyillari asosida mantiqiy izohlangan. "Burhoni qote" leksikasining ma'lum bir qismini diniy so'z va iboralar sharhi tashkil etib, ularning eng dolzarb masalalarga taalluqli tomonlari ilmiy nazariy asoslari kuzatilgan holda yuksak mahorat bilan tahlil va tadqiq qilingan.

7. Mazkur lug‘at asarining alohida bir qismini iqtibosiy so‘zlar sharhi tashkil etadi va ular turlicha izohlanadi. Asarda turkiy-o‘zbek, hind, rumiy, yunon, suriyoniy tillarga xos bo‘lgan so‘zlarning izohlanishi, ularning iqtibos keltirilishi, shuningdek lug‘atda shevalarga xos bo‘lgan ayrim so‘z va iboralarning tafsiri bu asarning keng qamrovli tarixiy lug‘atlardan biri ekanligidan dalolatdir. So‘zlarni sharhlash va tushuntirishda berilgan barcha leksikografik qo‘shimchalar, havolalar so‘zlarning shakli hamda ularning leksik ma‘nosini aniqlashga xizmat qiladi. Ko‘pincha izohli so‘zlarni talqin qilishda iqtibosning u yoki bu tilga tegishliligi ko‘rsatiladi. “Burhoni qote”da arabcha so‘z va iboralar XVII asr lug‘atlari kabi muhim o‘rin tutib, lug‘atda ikki holatda qayd etilgan: a) so‘zning birlamchi asosi sifatida; b) ko‘p hollarda izohlanadigan asosiy so‘zning tarjima varianti sifatida.

8. Lug‘atda miqdor va son jihatidan uchinchi o‘rinda turuvchi 300 dan ortiq bo‘lgan Zandu Pozand tarkiblari yo so‘z shakllari turadi. Demak, «Burhoni qote»da keltiriladigan so‘zlarning leksik qatlamlari turkiy-o‘zbek, hind, rumiy, yunon, suriyoniy va ayrim frazeologik va idiomatik so‘z va tarkiblarni o‘z ichiga oladi. So‘zlarni sharhlash va izohlashda berilgan barcha leksikografik havolalar so‘zlarning genezisi va ma‘nosini aniqlashga xizmat qiladi. Ko‘rib chiqilayotgan lug‘atda qisqartma va mufassal, tavobih (tobelangan), qarama-qarshi ma‘noli so‘zlar, so‘z yasovchi unsurlarlarni zikr qilish bilan bir qatorda muarrabotga ham alohida ahamiyat berilgani fors-tojik tillariga mansub so‘zlarining arab tilida keltirilishining uzoq tarixini ko‘rsatadi va so‘zlarning asl tarixiy ma‘nosini yoritishda hamda fonetik, leksik, morfologik o‘zgarishlarini aniqlashda yordam beradi.

9. Bir qarashda “Burhoni qote”dagi so‘zlarning etimologiyasi semantik-morfologik tahlil jarayoniga taalluqli maxsus yondashuvdek ko‘rinadi, lekin u yoki bu so‘zning ma‘no jihatdan tadrijiy takomili, uning evolyutsiyasiga chuqurroq nazar tashlasak, tahlillar “Burhoni qote” muallifining asardagi so‘zlarning leksik-semantik tadriji asosida ma‘no va mohiyati taraqqiyotiga chuqurroq nazar tashlaganini isbotlaydi. Muallif so‘zlarning tayanch va tub ma‘nosini, lug‘at doirasidagi o‘zgarishlarni struktur va semantik nuqtayi nazardan aniqlashga harakat qilganligini va ularning tuzilishi va ramziy, majoziy, kinoyaviy ma‘no tovlanishini belgilab berganligini anglash mumkin.

10. “Burhoni qote”da bir guruh so‘zlar tilga olingan bo‘lib, ularning izohi bilan birga tayanch ma‘nosi, ya‘ni etimologiyasi ham imkon qadar aniqlab berilgan. Albatta, so‘zlarning etimologiyasini aniqlash zamonaviy tilshunoslik ilmfan talablariga mutanosib emas va muallif o‘z davri tushunchasi sathi va o‘sha davr tilshunosligi nazariy asoslari va me‘yorlaridan kelib chiqqan holda amal qilgan. Bu asarda ilmiy atamalardan foydalanish va zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlariga rioya etish bilan birga, xalqona etimologiya tamoyillariga yondashishni ham ko‘rish mumkin. Ammo har holda ayrim so‘zlarning etimologiyasi va tarixini o‘rganish jarayonida Muahmadhusayn Burhon o‘z davrining turli ilmlarini puxta va mukammal egallaganligi, o‘zining lug‘atnavislik tajribasi va zamonasining qomusiy bilimlarini asarida aks ettira olganligi, o‘z davrining mashhur lug‘atnavislaridan biri ekanligiga amin bo‘lamiz.

11. Muallif soʻzlarning tuzilishi va ularning leksik va semasiologik maʼnosini oydinlashtirishga qaratilgan saʼy-harakatlari va intilishlari asarning diaxronik va sinxron ahamiyatini oshirdi, mazkur lugʻat asari ilmiy-nazariy qiymati yanada oshadi, unda keltirilgan lugʻat maqolasidan va har bir soʻz izohiga bagʻishlangan maxsus moddalaridan unumli foydalanish zamonaviy tilshunoslik yutuqlarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА  
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11. ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ  
СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ ШАРАФА РАШИДОВА**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ  
ШАРАФА РАШИДОВА**

**НУРИЛЛАЕВА ЗАРИНА ХАСАНОВНА**

**ОСОБЕННОСТИ ИНТЕПРЕТАЦИИ ЗНАЧЕНИЙ СЛОВ  
В ТАДЖИКСКО-ПЕРСИДСКИХ ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЯХ  
(на основе материалов «Бурхони котеъ»)**

**10.00.05 – Язык и литература народов Азии и Африки  
(таджикский язык и таджикская литература)**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована под номером B2018.4.PhD/Fil1661 в Высшей Аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.**

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарафа Рашидова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) выложен на веб-странице Самаркандского государственного университета имени Шарафа Рашидова ([www.samdu](http://www.samdu)) и в информационном портале “Ziyonet ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Шокиров Туграл Сирожевич**  
доктор филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Алимова Холида Зикриллаевна**  
доктор филологических наук, профессор

**Жураева Мушаррафа Рустамовна**  
доктор филологических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Бухарский государственный университет**

Защита диссертации состоится “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2024 года в “\_\_\_” часов на собрании Научного совета DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 по присуждению ученых степеней при Самаркандском государственном университете имени Шарафа Рашидова, (Адрес: 140104, г.Самарканд, Университетский проспект, 15. Тел: (8366) 239-11-40, 239-18-92; факс: (8366) 239-11-40; e-mail: [rector@samdu.uz](mailto:rector@samdu.uz)).

Диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарафа Рашидова (зарегистрирована под номером \_\_\_\_\_). (Адрес: 140104, г.Самарканд, Университетский проспект, 15. Тел: (8366) 239-11-40, 239-18-92; факс : (8366) 239-11-40).

Автореферат диссертации разослан “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2024 года  
(Протокол реестра № \_\_\_\_\_ от “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2024 года).

**М.К.Мухиддинов**

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.н., профессор

**Д.Б.Хурсанов**

Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD) по филологическим наукам

**Э.Р.Мусурмонов**

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.н.доцент

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировом языкознании приобретает актуальное значение исследование языка художественного текста с структурно-семантической точки зрения и использование в этом процессе методов статистического, компонентного, типологического, сравнительно-исторического, когнитивного, лексикографического, хронологического анализа. В частности, определение словарей, созданных на основе текстов истории национальных языков, их лексико-логической сущности в контексте текста, определение семантической и образной функции различных терминов, остается одним из основных принципов современной лингвистической науки. В этом смысле установление истории создания словарей и ее основных принципов, открытие в них цикла лексических, этимологических, исторических и хронологических значений применяемых слов, освещение уровня лексических, семантических единиц в тексте признается одним из важнейших факторов, определяющих исторический прогресс лингвистической науки.

На почве сферы лексикологии и лексикографии мировой лингвистической науки ведутся научные исследования по изучению истории языка, определению структуры словарей, созданных в разные эпохи, их исторической значимости. Данное направление дает возможность установить основные принципы создания энциклопедических, филологических, толковых и описательных словарей, синхронно исследовать языковые, метафорические, символические, логические и исторические особенности литературного текста, создавать электронные платформенные словари нового типа. Поэтому соблюдение общепринятых принципов в словарях, норм и критериев литературного языка в них, систематизация смысловых признаков словарных статей, относящихся к историческим и социальным потокам и жизненно-реальным реалиям, этимологии слов, их лексико-семантических основ, толкования цитируемых и заимствованных словарных статей считаются одними из основных задач, стоящих перед современным языкознанием.

В последние годы в нашей стране уделяется внимание вопросам науки, национального самосознания, возрождения духовно-культурной сокровищницы предков. “Бессмертное наследие, оставленное самоотверженными просветителями и сегодня служит важным ресурсом для повышения нашей духовности, воспитания молодежи в духе национальных и общечеловеческих ценностей”<sup>9</sup>. В результате отдельное значение в современной лингвистической науке как предмет научных исследований приобретает тот факт, что лексикография имеет особый статус в развитии словарного запаса, мировоззрения каждого народного языка, что лексикографические произведения служат для упорядочения общего

---

<sup>9</sup> Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент. «Ўзбекистон», НМИУ, 2017. –178 бет.

языкового запаса и стабилизации норм литературного языка отдельных лексических категорий.

Данное диссертационное исследование в определенной степени окажет практическое содействие выполнению задач, отраженных в Указе Президента Республики Узбекистан №УП-4797 "Об организации деятельности Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои» от 13 мая 2016 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан №ПП-2909 О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года, №ПП-3271 «О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению и продвижению культуры чтения» от 13 сентября 2017 года, №ПП-2789 "О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности, организации, выполнению и финансированию научно-исследовательской работы Академии наук» от 17 февраля 2017 года, №ПП-4865 «О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Навои», выступления на тему "Развитие литературы и искусства, словаря - прочная основа возвышения духовного мира нашего народа", и других нормативно - правовых документах относительно данной сферы деятельности.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в республике.** Диссертация выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики И. "Социальное, правовое, экономическое, культурное, духовно-просветительское развитие информатизированного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики".

**Степень изученности проблемы.** Относительно словаря "Бурхони котеъ" в истории лексикографии народов мира высказывали свое мнение ряд таких европейских ученых, как Джорж Ричардсон, Х.Блочман, С.Залеман, Алиакбари Деххудо, Саид Нафисий, Алиасгари Хикмат, Мухаммад Муйин, Шахриёрый Накавий, С.Баевский, Л.Шерба, В.Капранов, из числа таджикских и узбекских ученых - Х.Рауфов, А.Сангинов, А.Нуров, Х.Ахадов, С.Хошимов, Т.Шокиров, С.Назарзода, С.Каримов, Мирзо Хасани Султон, А.Отахонова, Д.Бахриддин, А.Вохидов, К.Мухиддинов, Н.Хусанов<sup>10</sup>, но

---

<sup>10</sup> Blochman H. Contributians to persion Lexicographg iongrhat ot the Asiatgot Bengal, Calkutta, 1868; Saleman C. Bericht uber die Ausgahle des Miyari Jamoli. Melanges Asiatiques de... 1888. P.417-594; С.В.Баевский. Ранняя персидская лексикография XI-XV вв.- М.:Наука, 1989; Описание персидских и таджикских рукописей института народов Азии, вып. 4. персидские толковые словари (фарханги) М.: Изд-во восточной лит-ры, 1962; Шерба Л.В. Опыт общей истории лексикографии, избранные работы по языкознанию и фонетике Т. I, -Л.: Изд-во Ленинградского университета, 1974; Деххудо Алиакбар Луғатнома. – Техрон, 1383. - Ч. 11. -765с.; ч.12. - 824 с.; Аз ў: Луғатнома ч.1-14. –Тегеран, 1993-1994; Саид Нафисий «Бурхони котеъ» нашри Мухаммад Муин, ч.1, Техрон, 1330 х. ш., Мукаддима. Дастури луғатнависӣ, фарханги Амид, чопи дуум, Техрон, 1345 Хуршедӣ; Алӣ Асғари Ҳикмат, Сарзамини Ҳинду Покистон. – Техрон, 1397 ш.; Шахриёри Нақавӣ. Фархангнависии форсӣ дар Ҳинду Покистон, Техрон, 1341; Капранов В.А.«Луғати фурс» Асади Туси и его место в истории таджикской фарси лексикографии. -Душанбе: Дониш,1969; его же: Таджикско-персидская лексикография в Индии XVI-XIX вв. –Душанбе: Дониш, 1987. Ҳ.Рауфов «Фарханги Чаҳонгирӣ» ҳамчун сарчашмаи лексикографияи тоҷику форс. –Душанбе: Дониш, 1973; Сангинов А. Словарь «Баҳори Ачам» и его лексикографическая характеристика. АКД. –Душанбе,1973;

произведение “Бурхони котей”, как одна из важнейших описательных и толковых словарей в истории лексикографии, до сих пор не рассмотрена в рамках отдельного исследования.

Несмотря на то, что выбранное в качестве объекта исследования “Бурхони котей” неоднократно переиздавалось, а данный словарь использовался в качестве основного источника для других словаристов, до сих пор в монографическом плане не проведены отдельные исследования по данному словарю.

Почти во всех исследованиях средневековых персидско-таджикских словарей упоминается название произведения, авторы которого лишь в общем изложили свои научные взгляды на ту или иную особенность словаря. Известный ученый-лексикограф в области персидско-таджикского текстопедения и источниковедения Х.Рауфов, изучая детали “Словаря Рашиди”<sup>11</sup>, отмечает, что он перевел эту работу на кириллицу и отредактировал ее заново. Известный ученый-лексикограф А.Нуров в предисловии к созданному им варианту и в процессе классификации словарей также говорит об этой работе<sup>12</sup>. Ш.Рахматова изучила фразеологические сочетания и ойконимы в данном словаре<sup>13</sup>, а С.Вайдуллозода-лексические особенности топонимических терминов в словаре<sup>14</sup>.

---

А.Воҳидов «Ғиёс-ул-луғот»-и Муҳаммад Ғиёсиддин ва мавқеи он дар фарҳангшиносии тоҷикӣ-форсӣ.- Самарқанд, 2012; Аҳадов Ҳ. «Фарҳанги Рашидӣ» ҳамчун асари лексикографӣ. –Душанбе: Дониш,1981; Ҳошимов С. Луғатшиносии фарҳангшиносии тоҷикӣ.-Душанбе:Маориф ва фарҳанг, 2004; А.Отахонова Масъалаи муайян кардани фонди воҳидҳои луғавии фарҳангҳои пешина. // Маҷ.Забоншиносии тоҷик, Душанбе: Дониш, 1977; Дарвеш Баҳриддин «Чароғи Ҳидоят»-и Орзу ва забони тоҷикии форсӣ, –Душанбе:Дониш, 1992; Воҳидов А. Структурно-семантикалық характеристика лексики в «Ғиёс-ул-луғот», АКД, Душанбе, 1975; Аз ӯ низ: Аз таърихи луғатнависии тоҷику форс. – Самарқанд, 1980; Фарҳангшиносии тоҷикӣ-форсӣ дар асрҳои X -XIX. – Самарқанд, 2018; Ҳусанов Н. Лексикографическая характеристика словаря Шейха Сулеймана Бухари «Луғати чигатойи ва Турки усмонӣ» АКД.. –Тошкент, 1982; Аз ӯ низ: Ўзбек антропонимлари тарихи. - Тошкент: Navro‘z Нашриёти, 2014; Содиков Қ. Таърихий лексикография. –Ташкент:Фан, 2011; Йўлдошев Б. «Санглох» луғатининг моҳир тадқиқотчиси «Ҳикмат ва ибратдан инган маърифат» Самарқанд, 2002; Алишер Навоӣ асарлари тилининг изоҳли луғати, Тошкент: Фан нашриёти, 4 жилддан иборат, 1983-1985; Проблема толкования слов в филологических словарях, Рига, 1963; Виноградов В.В Лексикология, Лексикография. М, 1977; Шарафутдинова К.А.Раскрытия значений слов в двуязычном словаре, Тошкент, 1968; Касарес К. Введение современную лексикографию.- М.: Наука, 1958; Болтубоева И. Робитаи луғавию фразеологии «Мусталахоту-ш-шуаро»-и Вораста бо лаҳҷаи Хучанд ва атрофи он. – Хучанд, 2009; Алиева Ф. Арабизированная и фарсизированная лексика в «Гиясуллуғат» Муҳаммада Гиясуддина Ромпури.- Автореф. дисс.на соиск канд фил. наук. –Хучанд, 2017; Шокиров Т.С. Таъбирот дар фарҳангҳо. -//Забон-рукни давлат. –Хучанд: Дабир, 2018; Аз ӯ низ: Киноёти лафзӣ дар “Ғиёс-ул-луғот”.-// Забон-рукни давлат. – Хучанд: Дабир, 2018; Забони тоҷикӣ дар луғати садзабона. -//Забон равшангари дилҳост. – Хучанд: Дабир, 2018.

<sup>11</sup> Рауфов Ҳ. “Фарҳанги Чаҳонгирӣ” Ҳамчун сарчашмаи лексикографияи тоҷику форс. –Душанбе: Дониш, 1973, 191 с.

<sup>12</sup> Муҳаммадхусайни Бурҳон. “Бурҳони котей” ҷ.1. Пешгуфтор . –Душанбе: Адиб, 1993; ҷ. I, 416 с.

<sup>13</sup> Рахматова Ш. Р.Фразеологизмҳо дар фарҳанги “Бурҳони котей”-и Муҳаммадхусайн Бурҳон.-// Ахбори ДДҲБСТ, 2019, № 4(81).-С.125-135 ; Аз ӯ низ: Ойконимҳо дар фарҳанги «Бурҳони котей»-и Муҳаммадхусайни Бурҳон.-// Ахбори ДДҲБСТ, 2021, № 3(92)

<sup>14</sup> Вайдуллозода С. Топонимика дар «Бурҳони котей»-и Муҳаммадхусайни Бурҳон./ С. Вайдуллозода, 2017, № 3.-С. 21-31.

Во всех этих исследованиях мы находим точки зрения общего характера. В исследованиях содержание и содержание словаря, его научно-теоретическая значимость, научное значение произведения как литературно-исторического источника остались вне поля зрения исследователей.

**Соответствие темы диссертации с планом научно-исследовательских работ учреждения, в котором выполнена диссертация.** Диссертация выполнена в соответствии с планом научно-исследовательских работ Самаркандского государственного университета в рамках на направления темы «Проблемы персидско-таджикской лексикологии и лексикографии».

**Цель исследования-интерпретация и классификация истории персидско-таджикской лексикографии и принципов ее возникновения, словарной школы Индии 18-19 веков, теоретических воззрений автора словаря “Бурхони котеъ” и применяемых в нем слов и способов описания слов.**

**Задачи исследования:**

- раскрытие исторических, научных, теоретических основ, условий, причин и факторов того периода, в котором были созданы историко-древние толковые словари и “Бурхони котеъ”;

- обоснование типов подробного, краткого, синонимического, антонимического, энциклопедического толкования слов в словаре;

- классификация заимствованных слов и толкование таких цитируемых слов как *суриёний, римий, занд-позанд* в словаре “Бурхони котеъ”;

- сравнение научно-критических мнений словареведов и исследователей по вопросу этимологии категорий слов в исследуемом словаре;

- комментирование мнений Мухаммадхусейна Бурхана о фонетических, лексических и морфологических особенностях словарей и словарных статей.

В качестве **объекта исследования** выбран словарь “Бурхони котеъ” (состоит из 3 томов под редакцией А.Нурова), словари “*Гиёс-ул-лузот*”, “*Фарҳанги забони тожик*”.

**Предметом исследования** являются методы и принципы толкования лексических сочетаний в словаре «Бурхони котеъ», определение словарных пластов данной работы.

**Методы исследования.** В исследовании использовались лексический, статистический, системный, компонентный, сравнительно-исторический, лингвопоэтический и обобщающий методы.

**Научная новизна исследования состоит из следующих:**

- определено совершенствование школы создания словарей в Индии в 18-19 веках, выявление в этом словаре таких активных передних и задних суффиксов как «*бо*», «*бе*», «*но*», «*дар*», «*фур*» и неактивных, таких как «*гун*», «*ваиш*», «*осо*», «*сор*» на основе фонологических, лексикологических, морфологических особенностей слов и сравнения, толкования фразеологических единиц;

- раскрыты лексико-семантические, символично-образные и историко-этимологические и композиционные особенности слов, характерные для

арабского, турецкого, индийского, греческого, римского, авестийского и согдийского, пехлевийского языков, а также такие их конструктивные своеобразия, как типы значений, парность и повторяемость;

- доказана словарная основа таких терминов, как “*мухаффаф*” (сокращение), “*мураххам*” (неоконченное), “*муарраб*” (арабизированное), “*тавобеъ-итбуъ*” (зависимые слова), “*муродифот* (однозначное)”, “*аздод* (антонимичной)”, “*ноқиз* (дефективное)” в словаре “Бурхони котеъ”;

- обоснована орфографическая, стилистическая, синтагматическая значимость стиля ссылок, ссылок внутри ссылок при толковании словарных статей, а также наличие таких лингвистических приемов, как дополнительная художественная, публицистическая, живая речь арабского инфинитива или *муштака* (с особой формой).

### **Практическими результатами исследования являются следующие:**

на примерах раскрыты принципы лексико-этимологического и образного толкования слов и терминов, внутренние и внешние ссылки в их толковании, стиль ссылки внутри ссылок в словаре;

разделены на лексико-семантические группы и доказаны на примерах слова, характерные для персидского, турецкого, хинди и арабского языков древности и раннего средневековья;

